



## NOMAQBUL DALILLARNI ANIQLASH VA BAHOLASHNING PROTSESSUAL TARTIBI TO'G'RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Jumayev Firdavs Nusratovich  
Jamoat xavfsizligi universiteti  
Magistraturasi talabasi

el.pochta:jumayevfirdavs598@gmail.com

Tel:(88)183-33-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17758968>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> November 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2025

Published: 28<sup>th</sup> November 2025

### KEYWORDS

*dalillarni baholash, Jinoyat-protsessual kodeksi, ishonchlilik, qonuniylik, nomaqbul dalillar, ekspertiza, odil sudlov, sud jarayoni, yaroqsiz dalil.*

### ABSTRACT

*Ushbu Maqolada dalillarning tushunchasi, turlari, to'plash va tekshirish usullari, shuningdek, nomaqbul dalillar deb topilishi mumkin bo'lgan holatlar batafsil tahlil qilinadi, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonining qonuniyligi adolatli sudlovni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi va shuningdek muhokama qilingan masalalar xususida mualliflik pozitsiyasi bayon qilingan.*

Jinoyat-protsessida dalillar muhim o'rin tutadi. Chunki aynan dalillar asosida sud, tergov va prokuratura organlari jinoyat sodir etilganligini, aybdorning kimligini va jazoga tortish zarurligini aniqlaydi. Shu bois dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonining qonuniyligi adolatli sudlovni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida dalillar institutiga alohida bob ajratilgan bo'lib, unda dalillarni nomaqbul deb topish asoslari, ularni aniqlash va baholashning protsessual tartibi belgilangan.

Nomaqbul dalil deganda — Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga zid ravishda olingan, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzgan holda yig'ilgan, shuningdek ishonchliligi shubha ostida bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi. Bunday dalillar ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga emas, balki odil sudlovga putur yetkazishga olib keladi. Shu sababli, nomaqbul dalillar jinoyat ishini hal etishda yuridik kuchga ega emas va sud tomonidan e'tiborga olinmaydi.

Jinoyat protsessida dalillar markaziy o'rin tutadi, chunki ular orqali haqiqat aniqlanadi, ayb isbotlanadi yoki rad etiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro standartlarga muvofiq, dalillar faqat qonuniy va adolatli usullar bilan olinishi, tekshirilishi va baholanishi shart. Aks holda, ular nomaqbul deb topilib, ish yuritishda ishlatilmaydi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi asosida nomaqbul dalillarni aniqlash va baholashning protsessual tartibini yoritishga bag'ishlangan.

Nomaqbul dalillar JPK ning 95<sup>1</sup>-moddasida batafsil belgilangan. Dalillar quyidagi holatlarda nomaqbul deb topiladi:

- 1) Kodeks talablariga rioya qilmasdan olingan bo'lsa
- 2) soxtalashtirish yo'li bilan olingan bo'lsa;
- 3) zo'rlik, qiynoq yoki boshqa noqonuniy usullar bilan olingan bo'lsa;
- 4) noqonuniy kuzatuv yoki boshqa harakatlar natijasida olingan bo'lsa;

5) nomalum manbadan yoki jinoyat ishi yuritish jarayonida aniqlanmagan manbadan olingan bo'lsa.

Bundan tashqari, 89-moddada davlat sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar noqonuniy olingan bo'lsa, nomaqbul hisoblanadi. Masalan, maxfiy ma'lumotlar faqat ruxsat bilan ishlatiladi. Nomaqbul dalillarning asosiy sababi – protsessual buzilishlar. JPK ning 88-moddasi dalillarni tekshirish va baholashda qonuniylikni ta'minlaydi: dalillarning ishonchliligi, ishga aloqadorligi, maqbulligi aniqlanmasa, ular nomaqbul bo'ladi.

Amaliyotda nomaqbul dalillar ko'pincha tergov harakatlarida yuzaga keladi. Masalan, guvohdan zo'rlik bilan ko'rsatuv olish yoki telefon suhbatlarini noqonuniy eshitish nomaqbul dalillarga olib keladi. Bunday dalillar sud tomonidan rad etiladi va ish yuritishdan chiqariladi, bu esa aybsizlik prezumptsiyasini (Konstitutsiyaning 28-moddasi)[1] ta'minlaydi.

Umumiy qilib aytganda nomaqbul dalil deganda, qonunda belgilangan tartib buzilgan holda olingan, shuningdek ishonchliligi shubha ostida bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi. Bunday dalillar jinoyat ishini hal etishda huquqiy kuchga ega emas.

Nomaqbul dalillarni aniqlash uchun bir qator protsessual va mazmuniy mezonlar mavjud. Asosiylari quyidagilardir:

1. Dalilni olish tartibining buzilishi: tintuv, guvohlantirish, so'roq, ko'zdan kechirish tergov harakatlari mobaynida protsessual qoidalarga amal qilinmasa (masalan, himoyachisiz so'roq o'tkazish, ekspert yoki mutaxassislarining jalb qilinmasligi va hokazo).
2. Bayonnomalarning noto'g'ri rasmiylashtirilishi yoki yo'qligi. Tergov harakati bayonnomasi talab darajasida tuzilmasa, undagi dalilni ishonchli deb bo'lmaydi.
3. Dalil manbasining noma'lumligi yoki ishonchsizligi. Masalan, anonim shaxsdan olingan axborot, tekshirilmagan video yoki audio yozuv. Dalil qayerdan olingani, kim tomonidan taqdim etilgani yoki uni to'plagan shaxs ma'lum bo'lmasa — bu dalil manbasi noma'lum hisoblanadi. Bunday holatda dalilni tekshirish, tasdiqlovchi boshqa ma'lumotlar bilan solishtirishning imkoni yo'q, shuning uchun u ishonchsiz deb topiladi. Misol uchun : Tergov organiga anonim (ism-sharifsiz) shaxs tomonidan yuborilgan xat yoki elektron pochta orqali yetkazilgan ma'lumot; Telegram, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda anonim akkaunt orqali joylashtirilgan xabar yoki post; Manbasi noma'lum bo'lgan fleshka yoki diskdagi ma'lumotlar

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi o'ziga berilgan vakolat doirasida jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar hisoblanadi va dalillarni tekshirishda muhim ishtirokchilar sanaladi. Boshqacha aytganda, tergovchi, surishtiruvchi jinoyat protsessining ayblov funksiyasini (jinoiy ta'qibni) amalga oshiradi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida nomaqbul dalillarni aniqlash va baholashga oid normalar yetarli darajada aniq belgilangan bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llash jarayonida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim hollarda tergov organlari dalilni olish shakliga yetarli e'tibor qaratsa-da, uning mazkur jarayondagi konstitutsiyaviy kafolatlar asosida olingan-olinmaganiga chuqur huquqiy baho bermasdan ish yuritmoqda. Bu holat esa dalilning tashqi tomondan qonuniy ko'ringani bilan, mazmunan nomaqbul bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nomaqbul dalillar asosan dastlabki tergov bosqichida yuzaga keladi. Ayniqsa, shoshma-shosharlik, jinoyatni tez ochish istagi, statistik ko'rsatkichlarga bog'lanib qolish kabi omillar tergov harakatlarining formallashuviga olib kelmoqda. Natijada advokatsiz so'roq qilish, protsessual hujjatlarni yuzaki rasmiylashtirish, guvohlarning bosim

ostida ko'rsatma berishi kabi holatlar uchrab turibdi. Bu esa dalilning keyinchalik sud tomonidan nomaqbul deb topilishiga olib keladi.

Yana bir muhim muammo — dalillarni baholashda ayrim sudlar tomonidan dalilning olinishi jarayonidagi buzilishlarga emas, balki uning aybni tasdiqlovchi mazmuniga ustuvorlik berilishidir. Aslida esa Jinoyat-protsessual qonunchiligi talabiga ko'ra, dalilning aybni tasdiqlashi yetarli emas, balki uning qonuniy yo'l bilan olingan bo'lishi majburiy shart hisoblanadi. Aks holda, hatto eng "ishonchli" ko'ringan ma'lumot ham nomaqbul dalil sifatida e'tirof etilishi lozim

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda ishtirokchilar quyidagi uchta asosiy funksiyadan birini yoki bir nechtasini bajarishadi: himoya, ayblash va ishni hal qilish. A.P.Blinkov va V.M.Bikovlar fikriga ko'ra, tergovchi jinoyat ishini tergov qilish orqali faqat ayblov funksiyasini amalga oshiradi[2]. Ammo bu protsessualist olimlarning fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, surishtiruvchi, tergovchining faqat ayblov funksiyani bajarishi JPKning 94-moddaga to'g'ri kelmaydi. Bu esa tergovning bir yoqlama o'tkazilishiga olib keladi. Bundan tashqari, qonunchiligimizda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi shartligi belgilangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqoridagi fikrlar haqiqatni aniqlash prinsipiga xam zid hisoblanadi.[3]

Agar tergovchi faqat ayblov funksiyasini bajaradigan subyekt sifatida qaralsa, unda jinoyat protsessining muvozanatli tizimi buziladi. Bu esa aybsiz shaxsga nisbatan ayblovning ustun kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tergovchining xolislik majburiyati nafaqat axloqiy, balki konstitutsiyaviy talab ham hisoblanadi

S.A.Sheyfer esa tergovchi jinoyat ishi doirasida undagi yengillashtiruvchi holatlarni o'rganish orqali himoya funksiyasini ham qisman bajaradi deya ta'kidlab o'tgan[4]. Chunki, ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozim. Jinoyat protsessining funksiyalari jinoyat-sudlov ish yuritish ishtirokchilarining vazifalarini va jinoyat-protsessual faoliyatning yo'nalishlarini belgilab beradi. U o'z navbatida mazkur ishtirokchilarning zarur protsessual maqomini yuzaga keltiradi. Davlatning vakolatli organlari yordamida jinoyat sodir qilgan shaxs aniqlanadi, unga rasmiy ayblov e'lon qilinadi, ular o'z nuqtai-nazarlarini dalillar yordamida asoslab beradilar.

Nomaqbul dalilni aniqlash jarayoni huquqni muhofaza qiluvchi organlarni yuqori professionalizmga va mas'uliyatga undaydi. Agar tergov harakatlari (masalan, tintuv, olib qo'yish, ekspertiza tayinlash) JPKning tegishli moddalarida belgilangan tartib va shakl talablariga (masalan, xolislar ishtirokisiz, sud ruxsatisiz) rioya qilmasdan amalga oshirilsa, bu xatolikning oqibati dalilning yuridik kuchini yo'qotishidir. Shunday qilib, bu institut tergovchi va surishtiruvchilarni har bir protsessual qadamning qonuniyligini doimiy nazorat qilishga majbur qiladi.

Xulosada quyidagilarni ta'kidlash joiz: Nomaqbul dalillarni rad etish — bu nafaqat protsessual norma, balki adolatli sudlovni ta'minlashning asosiy kafolatidir. Sud jarayonida har bir dalilning qonuniy yo'l bilan olinganligi, ishonchiligi va xolisligi ta'minlanmasa, adolatli qaror chiqarishning imkoni yo'q. Shu bois, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, tergovchilar va sudyalardan yuqori malaka, qonunlarga qat'iy rioya qilish va inson huquqlariga hurmat bilan yondashish talab etiladi. Shuningdek, Oliy sud huzurida nomaqbul dalillar bilan bog'liq sud

amaliyotini umumlashtirib boruvchi maxsus sharhlar doimiy e'lon qilinib borilishi ushbu institutni bir xil qo'llashga xizmat qilgan bo'lar edi.

Shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ommaviy axborot vositalari orqali qonuniylik tamoyillarini targ'ib etish ham bu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, O'zbekistonda sud-huquq tizimi yanada shaffof, adolatli va insonparvar bo'lib borishiga zamin yaratiladi. O'zbekiston jinoyat protsessida noma'qul dalillar masalasini hal etish, shunchaki texnik-huquqiy masala emas, balki adolatli sudlov, inson qadr-qimmati va qonuniylik prinsiplarini amalda ta'minlashning hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan shartidir. Bu institutning samarali ishlashi jinoyat ishini yuritishda xatoliklarning oldini oladi, noto'g'ri ayblovlarning asosini yo'qqa chiqaradi va pirovardida, aholining sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shuning uchun, tergov organlari, prokuratura va sudlar har bir dalilning maqbulligiga jiddiy yondashishi, Oliy Sud Plenumi tushuntirishlariga rioya etishi va qonun talablarini so'zsiz bajarishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar //Использования литература://Used literature:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2025.
3. Blinkov A.P. Prinsipy sostyazatel'nogo i obyektivno-istinnogo ugolov'nogo protsessa v deyatelnosti sledovatelya: sravnitel'nyy analiz: dis. ... kand. yurid. nauk. Volgograd. 2018. S. 84-85. Выков V.M. Pravovoye polozeniye sledovatelya v ugolovnom protsesse Rossii (chast 1) // Pravo i politika. № 5 (149). 2012. S. 880
4. Central asian academic journal of scientific research Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63)
5. Sheyfer, S. A. Rossiyskiy sledovatel - issledovatel ili presledovatel? / S. A. Sheyfer // Rossiyskaya yustitsiya. – 2010. – № 11. – S. 34-36. <https://elibrary.ru/item.asp?id=15594436&>
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi